“HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVI

**Qo’shtepa tumani hokimi I.Novikov Madaniyat markazida tumandagi yoshlar bilan suhbatlashdi.**



**Ushbu tadbirda tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev, tuman prokurori M.Shomurodov  hamda aloqador idora va tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etdilar.**

**“Hokim va yoshlar” uchrashuvida tumandagi 75 nafar yoshlar ishtirok etib, o’zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildilar. Uchrashuvda tashabbuskor va faol yoshlar o’zlarining kelajak rejalari, ularni qiynayotgan muammolar haqida ochiq-oydin gapirdilar. Berilgan savollarga tuman hokimi tomonidan atroflicha javoblar birildi.**



**Shuningdek, kredit va bandlik masalalarida murojaat qilgan yoshlarning muammolarini ijobiy hal etish yuzasidan muddatlar belgilanib, tegishli tashkilot va korxona rahbarlariga ko’rsatmalar berildi.**



**Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2021-01-06 17:55:54